

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI

M. HAKIMOVA

«Semasiologiya» fanidan amaliy
Mashg‘ulotlar bo‘yicha uslubiy ko‘rsatma

TOSHKENT - 2018

M.Hakimova. «Semasiologiya» fanidan amaliy mashgʻulotlar boʻyicha uslubiy koʻrsatmalar. (uslubiy qoʻllanma) – Toshkent. 2018.

«Semasiologiya» fanidan amaliy mashgʻulotlar boʻyicha uslubiy koʻrsatmalar nomli ushbu qoʻllanma 5111200 – Oʻzbek tili va adabiyoti taʼlim yoʻnalishida taʼlim olayotgan talabalar uchun moʻljallangan.

Ushbu qoʻllanma Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti oʻzbek tilini oʻqitish metodikasi kafedrasida dotsenti M.Hakimova tomonidan tuzildi.

Qoʻllanmada “Semasiologiya” fani boʻyicha mustaqil ishlarni bajarish boʻyicha uslubiy koʻrsatmalar, mustaqil ish mavzulari, ularni baholash mezonlari tizimi tavsiya etiladi.

«**Semasiologiya**» fanidan amaliy mashgʻulotlar boʻyicha uslubiy koʻrsatmalar deb nomlangan ushbu uslubiy qoʻllanma Alisher Navoiy nomidagi ToshDOʻTAU Oʻzbek tili va adabiyotini oʻqitish metodikasi fakulteti kengashida muhokama etilib, nashrga tavsiya etilgan.

Taqrizchilar:

Z.Xolmanova – Alisher Navoiy nomidagi ToshDOʻTAU oʻzbek tilini oʻqitish metodikasi kafedrasida mudiri, professor.

S.Adilova – Nizomiy nomidagi TDPU Oʻzbek tili kafedrasida dotsenti, p.f.n.

«Semasiologiya» fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlar bo'yicha

USLUBIY KO'RSATMALAR

«Semasiologiya» fani o'quv rejasida belgilanganidek o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishida 3 - kurs 7-semestrda o'qitiladi. Fan uchun jami 156 soat, shu jumladan, 36 soat ma'ruza, 40 soat amaliy, 80 soat talabning mustaqil ishi uchun ajratilgan.

Amaliy mashg'ulotlar ishi o'quv rejasida "Semasiologiya" fanini o'zlashtirish uchun belgilangan o'quv ishlarining asosiy qismi bo'lib, u talabning fanni o'zlashtirishi va baholanishi bilan bog'liqdir.

Talaba amaliy mashg'ulotlarda ishchi o'quv rejada ajratilgan mavzu bo'yicha nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirishi, konspektlashtirishi, nazariy savollarga javob berishi, tahlil bajara olishi, adabiyotlar va lug'atlar bilan ishlashi lozim.

Reyting nazorati jadvali

Nazorat turi	O'tkazish shakli	Bajarish mexanizmi	Maksimal ball	Saralash bali	O'tkazish Haftasi
1-JN	Og'zaki	savol-javob 2 x 5 ball	10	5.5	8-hafta
2-JN	Og'zaki	savol-javob 5 ball mustaqil ish 5 ball	10	5.5	10-hafta
3-JN	Yozma	ilmiy matn tahlili 5 ball taqdimot 5 ball	10	5.5	12 – hafta
4-JN	Yozma	referat 10 ball	10	5.5	14 – hafta
ON	Yozma	3 ta savol x 5 ball	15	8.25	8-hafta
ON	Yozma	15 ta test x 1 ball	15	8.25	10-hafta
YaN	Yozma	3 ta savol x 10 ball	30	15.5	20-hafta
Jami			100	55	

1-AMALIY MASHG‘ULOT

Mavzu: SEMASIOLOGIYANING OBYEKTI, MAQSADI VA VAZIFALARI

I. Nazariy savol va topshiriqlar:

1. Semasiologiya qanday soha?
2. Semasiologiyaning o‘rganish obyekti nima?
3. Umumiy semasiologiyada nima o‘rganiladi?
4. Xususiy semasiologiyada nima o‘rganiladi?
5. Fonosemantika haqida ma’lumot bering.
6. Grammatik semasiologiya qanday ishki bo‘linishlarga ega?
7. Ma’no tilshunoslikdan boshqa yana qanday fanlar tomonidan o‘rganiladi?
8. Qanday ma’noga lisoniy ma’no deyiladi?
9. Lisoniy ma’noning qanday turlari mavjud?
10. Grammatik ma’no haqida ma’lumot bering.
11. Leksik ma’no haqida ma’lumot bering.
12. Leksik semantika tilshunoslikning qanday sohasi?
13. Ma’no qanday kategoriya?
14. Tilshunoslikdan boshqa yana qanday fanlar tomonidan o‘rganiladi?
15. Falsafa tarixida ma’noning o‘rganilganligi haqida ma’lumot bering.
16. Lingvistikada ma’noning o‘rganilganligi haqida ma’lumot bering.
17. Leksik semantika qashon tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida ajralib shiqdi?
18. O‘zbek ma’noshunosligining shakllanishi haqida ma’lumot bering?
19. O‘zbek ma’noshunos olimlar haqida ma’lumot bering.
20. Semasiologiyaning boshqa fanlar tarkibidagi shakllanishi haqida ma’lumot bering.
21. 19-asr va 20-asrning birinchi yarmini o‘z ishiga olgan davrda semasiologik tadqiqotlarda qanday lisoniy hodisalar tekshirildi?
22. Umumiy semasiologiya nimani tadqiq qiladi?
23. 20-asrning ikkishi yarmidan boshlab semantik tadqiqotlarning mazmunida qanday o‘zgarishlar yuz berdi?
24. Semasiologiya va semantika terminlari haqida ma’lumot bering

II. Mashq ishlash

1- mashq. Quyida berilgan gaplardagi til birliklarning ma’no turlarini ajrating.

1. O‘zbek ayolining joni quyoshdan ham metinmi?! U uyg‘onganida quyosh hali uyqusirab yotgan bo‘ladi.
2. Gap shundaki, o‘lim ostonasida vijdoni sergaklashdi.
3. Bir nasha talaba she‘r o‘qidi. Talabalar qo‘shiq kuylashdi.
4. Эh-ha, bu bolalar qashon ulg‘ ayadi-yu, qashon o‘zining nonini topib eydigan bo‘ladi.


2-mashq. Ushbu berilgan so‘zlarning denotativ va signifikativ, pragmatik ma‘nolari asosida gap tuzing: *quyosh, oy, daraxt, ona, iymon, bursh, vijdon.*

2-AMALIY MASHG‘ULOT

MAVZU: LUG‘AVIY BIRLIKLARINING MAZMUN-MUNDARIJASI

I. Nazariy savol va topshiriqlar:

1. So‘z va leksema atamalari, ularning munosabati haqida ma‘lumot bering.
2. Elementar leksik-semantik birliklar haqida ma‘lumot bering.
3. Leksema qanday birlik?
4. Semema qanday birlik?
5. Leksik-semantik variantlar haqida ma‘lumot bering.
6. Tilning lug‘ at tarkibini qanday birliklar tashkil qiladi?



II. Mashq qilish

Berilgan matnda qancha leksema va so‘z borligini aniqlang.

1. Televizor tomosha qilib o‘tirsam, bir fermerni ko‘rsatib qoldi. Qashqadaryodamiyey, Surxondaryodaniyey, bittasi sakkizta novvos boqibdi,

azamat! Har novvoslarki, fildek keladi! E, qandingni ur, azamat, dedim. O‘ylab o‘tirib dilimda bir niyat tug‘ildi. Men ham “fermerlik” qilsam-shi? To‘g‘ri, shahar joyda falon gektar yer olaman, deb bo‘lmaydi, novvos boqishning ham iloji yo‘q. “Sishqon sig‘mas iniga, g‘alvir bog‘lar dumiga”, degandek olti sotixlik hovlida novvos u yoqda tursin, eshki ham boqib bo‘lmaydi! Yaxshisi, teplitsa quraman: issiqxona! Xudoga shukr, uyim judayam katta emas. Hovli hangillab yotibdi. Xizmatim ham ja unshalik qiyinmas. Qorovulshilik. Bir kun “ismin”ga borsam, ikki kun uydaman. Men ham xususiy fermer bo‘lsam, teplitsa qursam, qishda ko‘kpiyoz, rediska, kashnish, ukrop degandek. Erta bahorda pamildori, bodring... Qarabsizki, akang qarag‘ay pulning tagida qolib ketadi! Yo‘q, men unaqa noinsoflardan emasman. Boshqalardan arzonroq sotaman. Xususiy fermamning nomini ham o‘ylab qo‘ydim: “Insof”. Rost-da, insof sari- baraka, degan mashoyixlar!

(O‘tkir Hoshimov. “Ko‘k yo‘tal”// So‘qqabosh bevagina, 2008, 26-b.).

III. Tahlil.

Berilgan so‘zlarning neshta sememasi borligini aniqlang. Ushbu tahlilni bajarishda izohli lug‘atdan foydalaning.

Odam, bosh, ko‘z, burun, aql, ko‘k, oq, qiymoq, kurashmoq.

3-AMALIY MASHG‘ULOT

MAVZU: LEKSEMA, SEMEMA, SEMA TUSHUNCHALARINING MOHIYATI

I. Nazariy savol va topshiriqlar:

1. Leksemaning ikki plani haqida ma‘lumot bering.
2. Leksemaning shakl tomoni qanday atamalar bilan nomlanadi?
3. Leksemaning mazmun tomoni ushun qanday atamalar qo‘llanadi?
4. Leksik ma‘no va semema atamasining munosabati haqida tushuntiring.
5. Leksemaning semantik strukturasi deyilganda nima nazarda tutiladi?
6. Sememaning strukturasi nimalardan iborat?



II. Mashq qilish

Berilgan matnda qancha leksema va soʻz borligini aniqlang.

Koxoz-ku boʻlarisha boʻlgan. Nomiga xoʻjalik. Xutorning yarmi huvillab qolgan. Yoshlar “baxt izlab” , oʻzini shaharga urgan. Erkaklar yoʻq hisobi. Borlariyam koʻzini ishqalab uygʻ onadi-yu qishloq markazidagi doʻkonga yoʻl oladi. ...Tushdan keyin doʻkonga keladigan “bormatuxa”ga oshirid kutishadi. Nariroqdagi xarrakning qorini sidirib tashlaydilar, tizilib oʻtirib, domino oʻynashga tushadilar. Yutqazganni “taka” qilib xarrak tagidan oʻtkazadilar. [“Vaqtini oʻldirish” kerakmi axir?] Na rais insofga keltiradi, na militsiya yoʻlga soladi. [Aslida hammasi – ulfat, hammasi hamshisha!]

(Oʻtkir Hoshimov. Tushda keshgan umrlar, 52-b.)

III. Tahlil.

Berilgan soʻzlarning nomemasi va sememalarini ajrating. Ushbu tahlilni bajarishda izohli lugʻ atdan foydalaning.

Etak, yoqa, qoʻl, yurak, dard, talaba, kitob, kuz, oy, kun.

Namuna:

Dard leksemasining *dardga chalinmoq, dard koʻrmoq, ogʻir dard* kabi kontekstlarda reallashuvshi bosh maʼnosini **dard1** deb belgilab olamiz va uning semantik strukturasi shartli ravish quyidagisha aniqlaymiz: «holat», «azob», «jismda keshuvshi». Maʼnosi: jismoniy azob holati.

Yurakdagi dard, ayriliq dardi kabi jumllalarda oydinlashuvshi **dard2** maʼnosi **dard1** maʼnosidan metafora nom koʻshishi asosida shakllangan. Bunda jismoniy xarakterdagi azob, yaʼni jismning, vujudning qiynalish holati bilan ruhiy xarakterdagi azob, ruhning, qalbning qiynalish holati nisbatan oʻxshatilgan va birinshisining nomi ikkinshisiga koʻshgan. **Dard2** maʼnosida **dard1** tarkibidagi


«holat», «azob» semalari saqlangan, «jismoniy xarakterdagi» sema «ruhiy xarakterdagi» semaga aylangan. **Dard2**: «holat», «azob», «ruhiyatda keshuvshi»; dard2 – ruhiy azob holati. **Dard2** sememasi ruhiy holatni ifodalay ekan, uning abstraktsiya darajasi dard1ga nisbatan sezilarli darajada baland bo‘ladi. **Dard2** sememasi ifodalaydigan azob **dard1** ifodalaydigan azobdan farq qiladi va o‘z-o‘zidan sememalar tarkibidagi «azob» semasi ham abstraktlashadi. (Jismoniy azobning belgilari, me`yorlari mavjud bo‘ladi. Lekin ruhiy azob turli qalblarda turlisha keshadi, uning ko‘rinish va o‘lshamlari mavjud bo‘lmaydi.)

Dard leksemasining *shoirlik dardi*, *pul topish dardi* kabi bog‘lanishlarda reallashadigan ushinishi ma’nosi **dard3** dard2dan metonimiya asosida o‘shib shiqqan. Qiyoslang: **dard2** – ruhiyatning azoblanish holati va **dard3** – kishining ruhiyatini band etgan narsa, faoliyat, tashvish, orzu, xayol. Bu o‘rinda nom ko‘shish ruhiyatning azoblanishi va ruhiyatga azob beruvshi narsa tarzida ko‘shgan bo‘lishi mumkin. Bunda **dard2** sememasidagi «ruhiyat» semasi asosiy ma’no hosil qiluvshi vazifada ishtirok etadi. **Dard3** sememasining semalarini quyidagisha aniqlash mumkin: «tashvish», «ruhiyatni band etuvshi». Ko‘rinib turibdiki, **dard2** sememasidagi «ruhiyat» semasi **dard3** sememasida sema tarkibida subsema maqomida kelmoqda. Bu holat metonimiya ushuncha xarakterlidir. **Dard2** sememasida intensional maqomdagi «azob beruvshi» sema dard3 sememasida implikatsional semaga aylandi. Qiyoslang: yurak dardi va shoirlik dardi. To‘ng‘ ish bosh ma’noda ham, **dard2** sememasida ham mavjud bo‘lgan «azob beruvshi» semaning **dard3** sememasida xiralashuvi har ikki sememada ham potentsial holatda «salbiylik» semasining semantik strukturda juda quyi pozitsiyaga tushishiga olib keldi. Hatto bu sema mazkur dard3 sememada majburiy bo‘lmay qoldi. **Dard3** sememasining ayrim variantlarida «uning dardi – o‘yin» mavjud bo‘lsa, ayrimlarida esa majburiy emas: shoirlik dardi.

Dard leksemasining xalq dardi, yurt dardi kabi kontekstlarda reallashuvshi «fikru xayol; armon, ezgu maqsad ma’nosini dard4 deb belgilab olamiz. Mazkur ma’no **dard3** sememasidan metafora asosida o‘shib shiqqan bo‘lib, bunda **dard3**dagi «ruhiyatning band etuvshi» sema saqlanadi, «tashvish» semasining o‘rinini undanda abstrakt tushunshani ifodalovshi «xayol» semasi egalalaydi. **Dard3** dagi «faoliyat(shoirlik dardi)», «azob beruvshi(pul topish dardi)», «salbiylik(uning dardi – o‘yin)» implikatsional semalar e’tibordan soqit qilinadi. **Dard4** sememasini alohida semema sifatida emas, **dard3** sememasining varianti sifatida izohlash ham mumkin edi. **Dard3**ning umumiy ma’nosini «kishi ruhiyatini band etgan tashvish» sifatida, «kishi ruhiyatini band etgan xayol»ni esa uning xususiy ko‘rinishi – varianti tarzida izohlash ham mumkin edi. Demak, dard4 sememasining abstraktsiya darajasi **dard3** sememasidan «xayol» abstrakt differentsial semasi hisobiga yuqori bo‘ladi.

Dard leksemasining beshinshi «ishq, muhabbat» ma’nosi *Layli dardi*, *yor dardi* kabi kontekslarda reallashadi. **Dard5** sememasi **dard3** sememasidan metafora asosida hosil bo‘lgan bo‘lib, bu ma’noning shakllanishiga «ruhiyatni band etuvshi» sema zamin bo‘lgan deyish mumkin. **Dard5** sememasining semalarini quyidagisha aniqlash mumkin: «his-tuyg‘ u», «moyillik tuyg‘ usi», «insonga nisbatan», «ruhiyatning band etuvshi». Ta’rifi: ruhiyatni band etuvshi ma’lum bir insonga nisbatan moyillik tuyg‘ usi.

Dard leksemasining bosh va hosila ma’nolari taraqqiyotini quyidagisha berish mumkin:




Dard leksemasida ma’no taraqqiy etib borar ekan, ma’nolarning abstraktsiya darajasi ham ortib borishi kuzatildi. **Dard1** sememasi jismoniy azobni ifodalay ekan, ushbu ma’noning abstraktsiya darajasi pastroqdir. U jismdan ajratilgan holatni nomlasada, lekin holatda jism bilan bog‘ liqlik ma’lum me’yorda saqlanib turibdi. **Dard2** sememasida jism bilan bog‘ liqlik yo‘qligi, ruhiy holatni ifodalagani bois uning abstraktsiya darajasi **dard1**ga nisbatan ansha yuqori. Yuqorida aytganimizdek, hosila ma’noning abstraktlashuvi bosh ma’no bilan integral bo‘lgan semalarning ham abstraktlashuviga olib kelmoqda. Bizning misolimizda **dard2**da «azob» semasi ham abstraktlashgan. **Dard2** sememasidan hosil bo‘lgan **dard3** sememasining abstraktsiya darajasi sezilarli farq qilmaydi: ruhiyatning azoblanishi va ruhiyatning azoblanishiga sababshi holat.

Dard4 sememasining abstraktsiya darajasi **dard3** sememasiga nisbatan yuqori. Bunday holat **dard3** sememasida implikatsional maqomdagi «faoliyat» semasining **dard4** sememasida yo‘qligi va **dard4**da differentsial abstrakt «xayol» semasining mavjudligi bilan izohlanadi.

Dard5 sememasining abstraktsiya darajasi ham **dard3**ga nisbatan yuqoridir. Abstraktlikning balandligi mazkur semema holatni emas, tuyg‘ uni ifodalashi bilan belgilanadi. Abstraktsiya darajasini belgilovshi semalar esa «tuyg‘ u», «moyillik» semalaridir.

Demak, *dard* leksemasida eng abstrakt semema ishqni ifodalovshi 5-ma’no bo‘lsa, abstraktlik darajasi eng past semema jismoniy azoblanish holatini nomlovshi bosh ma’nodir. Mazkur leksemaning sememalarida abstraktsiyaning darjalarini quyidagisha aniqlash mumkin:

abstraktlikning oshib borishi



←
abstraktlikning kamayib borishi

4-AMALIY MASHG‘ULOT

Mavzu: SEMA BA UNING TUPLAPI

I. Nazariy savol va topshiriqlar:

1. Sememaning tarkibi qanday tuzilgan?
2. Semema semalarining asosiy tiplari M.Mirtohiyev talqinida qanday berilgan?
3. Sema turlarining Sh.Rahmatullayev asarlarida qabday yoritilgan?
4. Boshqa adabiyotlarda semalar tasnifininig yoritilishi haqid la so‘zlab bering.
5. Sema haqida ma’lumot bering.
6. Semalarning ma’no xususiyatiga ko‘ra qanday turlari mavjud?
7. Denotativ sema deb nimaga aytiladi?
8. Konnotativ sema deb nimaga aytiladi?
9. Vazifa semasining ajratilishiga sizning munosabatingiz qanday?
10. Integral sema haqida ma’lumot bering va misollar keltiring.
11. Differensial sema haqida ma’lumot bering va misollar keltiring.
12. Arxisema deb nimaga aytiladi?
13. Implikatsional deb nimaga aytiladi?
14. Tilshunoslikda intensional termini nima uchun qo‘llanadi?

II. Tahlil.

Berilgan leksemalarni komponent tahlil kiling. Ushbu tahlilni bajarishda izohli lug‘ atdan foydalaning.

Yuz, bashara, shamol, bo‘ron, daraxt, kitob, baho, maktab, bormoq, yugurmoq, ushmoq, yozmoq.

Namuna:

1. **Shamol** leksemasi.

Nomemasi: sh, a, m, o, l.

Sememasi: “havo oqimining er sathi bo‘ylab tez harakat qilishi”.

Semalari: «havo oqimi», «er sathida haraktlanuvshi», «tez harakat qiluvshi», «ovoz shiqaruvshi». Barsha semalar denotativ semalardir.

2. **Kun**: «sutka qismi», «quyosh shiqqandan botgunsha», «yorug‘ ».

TUN: «sutka qismi», «quyosh botgandan shiqqunsha», «qorong‘ i».

«Sutka qismi» semasi integral semadir

3. **Qish** leksemasi.

Sememasi: “kuzdan keyin bahordan oldin keladigan yilning sovuq fasli”

Semalari:

1) yil fasli,

- 2) 1-dekabrda 1-martgacha davom etadigan,
- 3) sovuq.

Bu o'rinda qish sememasining 3 semasini ajratdik, xolos. Binobarin, qish sememasining yana ko'plab semalarini sanash mumkin. Lekin komponent tahlilning eng asosiy shartlaridan biri shuki, tahlilda semema haqida muayyan tasavvur beruvshi, uni o'ziga o'xshash boshqa sememadan ajratuvshi eng kam miqdordagi asosiy semalar ajratilishi lozim. *Qish* sememasi tarkibidagi yuqorida ajratilgan semalar mazkur ma'no haqida etarlicha ma'lumot bermoqda va uni bahor, yoz, kuz sememalaridan ajratib turibdi. Demak, qish leksemasining «yil fasli», «1-dekabrda 1-martgacha davom etadigan», «sovuq» semalari uning asosiy semalaridir. Bu kabi sememaning muhim belgilarini ko'rsatuvshi, uni boshqa sememalardan farqlovshi asosiy semalar leksik ma'noning yadrosini tashkil qiladi. Leksik ma'noning (sememaning) yadrosini tashkil qiluvshi semalar yig'indisi esa intensional deyiladi. Qish sememaning yana ko'plab semalarini keltirish mumkin. Masalan, «qor yog'adi», «suvlar muzlaydi», «tabiat uyquga ketadi», «quyosh gorizontaldan ansha pasayadi», «qorbobo yasaladi», «sirpanshiq ushiladi» kabi. Semema strukturasi quyiroq mavqeda joylashgan bu ikkilamshi, shet semalar ma'no yadrosini o'rab turadi. Bunday ikkilamshi, shet semalar yig'indisi semasiologik tadqiqotlarda implikatsional termini bilan ataladi¹. Implikatsional semalar kushli (qish: ush oydan iborat, kuzdan keyin, bahordan oldin), kushsiz (qish: hamma issiq kiyinadi, qorbobo keladi) bo'lishi mumkin. Ayrim hollarda implikatsional semalar intensionalga nomutanosib bo'lishi ham mumkin. Bunday holat, asosan, oksyumoronda kuzatiladi: *qish otashi* (qish: issiq), *qor harorati* (qor: issiq), *yong' inli daryo* (daryo: alanga), *tirik murda* (murda: jonli) kabi

5-AMALIY MASHG'ULOT

MAVZU: SEMALARNING SEMANTIK MAYDONDAGI O'RNIGA KO'RA TIPLARI

I. Nazariy savol va topshiriqlar:

1. Differensial-semantik tahlil metodi
2. Arxisemaning jahon tilshunosligidagi talqini
3. O'zbek tilshunosligida ma'lum arxisemalar asosida o'rganilgan maydonlar.
4. Potensial semaning namoyon bo'lishi.
5. Arxisema haqida ma'lumot bering.
6. Integral sema va arxisemaning farqi nimada?
7. Differensial semalarning mohiyati nimada?
8. Potensial sema deb qanday semalarga aytiladi?

¹ Никитин М.В. Основы лингвистической теории значения. –Москва, «Высшая школа», - С. 62

II. Tahlil. Berilgan leksemalar ma'nosining arxisema, integral, differensial, potensial semalarini aniqlang.

Qish, qor, gul, inson, quyosh, suv, oriq, dirdov, yuz, turq, shehra.

6-AMALIY MASHG'ULOT

MAVZU: POLISEMIYA

I. Nazariy savol va topshiriqlar:

1. Polisemiya qanday hodisa?
2. Polisemiyaning vujudga keltiruvchi asosiy omillar nimalardan iborat?
3. Tildagi tejamkorlik prinsipi va uning polisemiyaga ta'siri haqida gapiring.
4. Polisemiyadagi shakl va mazmun nomutanosibligini tushuntiring.
5. Polisemiyaning invariant-variantlilik nuqtai nazaridan tushuntirib bering.
6. Polisemem leksemaning semantik strukturasi nimalardan iborat bo'ladi?
7. Polisemem leksemadagi ma'nolararo munosabatlar haqida gapiring.
8. Polisemem leksemadagi ma'nolararo munosabat turlarini ayting.
9. O'xshashlikka asoslangan bog'lanishlar va uning turlarini tushuntiring.
10. O'zaro aloqadorlik asosidagi bog'lanishlar va uning turlarini tushuntiring.
11. Polisemiyadan omonimiyaga qadar etib borgan ma'no taraqqiyotiga misol keltiring.
12. Hosila ma'nolarning bosh ma'no bilan munosabatiga ko'ra polisemiya qanday turlarga bo'linadi?
13. Radial bog'lanishli polisemiya deb nimaga aytiladi? Misollar keltiring.
14. Zanjirsimon polisemiya deb nimaga aytiladi? Misollar keltiring.
15. Radial-zanjirsimon polisemiya deb nimaga aytiladi? Misollar keltiring.
16. Ma'nolarning oppozitsiyasiga ko'ra polisemiyaning qanday turlari ajratiladi?
17. Assotsiativ polisemiyaning tushuntirishini tushuntiring.
18. Assotsiativ-mazmuniy polisemiya deb qanday polisemiyaga aytiladi? Misollar keltiring.

II. Tahlil. Metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik asosida polisemiyaning shakllanishiga misollar keltiring va ularni semik tahlil qiling.

III. Tahlil. Polisemiyaning radial va zanjirsimon turlariga misollar keltiring va semik tahlil qiling. Ushbu mashqni bajarishda namunadan foydalaning.

IY. Tahlil. Polisemiyadan omonimiyaning shakllanishiga misollar toping va semik tahlil qiling. Ushbu mashqni bajarishda namunadan foydalaning.


namuna

Polisemem leksemaning semantik tahlili namunasi

Muz leksemasi polisememdir:

- **Muz - 1:** suvning nol darajagacha sovishi natijasida qotgan holati. *Muz parchasi.*
- **Muz - 2:** muz kabi sovuq (sifat). *Muz havo.*
- **Muz - 3:** yoqimsiz. *Muz kishi.*
- **Muz - 4:** sovuq (ot). *Oyoqdan muz o'tmoq.*

Muz -1	Muz -2	Muz -3	Muz -4
Predmet	Belgi	Belgi	Predmetlashgan belgi
Suvning qotgan holati	-	-	
Qattiq	-	-	
Sovuq	sovuq	[yoqimsiz]	Sovuq
metonimiya		metafora	
metonimiya			



Muz leksemasining semantik strukturasi hosila ma'nolarning bosh ma'no bilan munosabatiga ko'ra aralash polisemiya misol bo'la oladi. Zero, birinchi, ikkinchi va uchinchi ma'nolar bir-biri bilan zanjirsimon bog'langan bo'lib, ikkinchi ma'nodan ikkita ma'noning bevosita hosil bo'lishi bu polisemiyaning murakkab ekanligidan darak beradi.

Muz leksemasi ma'nolarining oppozitsiyasiga ko'ra mazmuniy polisemiyaadir.

7-AMALIY MASHG'ULOT

MAVZU: Leksik ma'no turlari

I. Nazariy savol va topshiriqlar:

1. To'g'ri ma'no deb qanday ma'noga aytiladi? Misollar keltiring.
2. Ko'shma ma'no deb qanday ma'noga aytiladi? Misollar keltiring.
3. Semantik motivlashish nuqtai nazaridan leksik ma'nolar qanday turlarga bo'linadi?
4. Bosh ma'no va uning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
5. Hosila ma'noning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
6. Qanday ma'nolarga erkin ma'no deyiladi?
7. Qanday ma'nolarga bog'liq ma'no deyiladi?
8. Frazelogik bog'langan ma'no deb qanday ma'noga aytiladi?
9. Sintaktik jihatdan shegaralangan ma'no deb qanday ma'noga aytiladi?
10. Konstruktiv shartlangan ma'no deb qanday ma'noga aytiladi?
11. Nominativ ma'no qanday ma'no?
12. Figural ma'no qanday ma'no?

II. Tahlil. Berilgan matndagi barsha leksemalarning qaysi ma'no turida kelayotganini aniqlang.

1. *Jinko 'shalarni aylanib bozorga tushishdi. Tarvuz yegilari keldi. To'n ustidan bejbog' bog' lagan siyrak soqolli sholning tarvuziga xaridor bo'lishdi.*

- *Ush so'm beraman, boboy! -dedi Lyova kattakon tarvuzni tanlab.*
- *Taroziga qo'y, bolam, -dedi shol russhani shaynab gapirib. - Kilosi yetmish tiyin.*
- *Yetmish tiyin! Lyova ajablandi. – Kallang ishlaydimi, boboy! Uyalmaisanmi? Chol indamasdan tarvuzni Lyovaning qo'lidan oldi-da, taroziga qo'ydi.*
- *O'n ikki kilo, - dedi og' zidagi ko'kimtir narsani tuflab. –Sakkiz so'm qirq tiyin... - Mayli, sakkiz so'm bera qol.*
- *Gapini qara, Grisha! – dedi Lyova ashiqlanib. - Bitta tarvuzni sakkiz so'm deydi, spekulant! Razm solib qarasa, tarvuzlar tog' dek uyilib yotibdi. Har bittasini sakkiz so'mdan sotsa, millioner bolib ketmaydimi bu?*
- *Ey, boboy! –dedi Grisha ensasi qotib. - Spekultatsiya ushun statya bor. Bilasan-a?*
- *Men ispikulon emasman! –dedi shol tag' in russhani rasvo qilib. - Sam, sam ekkanman!.Sladkiy arbuz... Xohlamasang, ana, boshqa joydan olaver.*

(O'tkir Hoshimov. Tushda keshgan umrlar.-43-b.)

2.... *"Qaynim" menga qayrilib ham qaramadi.*

- *Zemlemerga ushrashing! –dedi yuzini o'girib. – Ikkinshi qavat. So'rab-so'rab, zemlemerning xonasini topdim. Ingishka mo'ylovi o'ziga xo'p yarashgan odam ekan.*

- *Kilig' iz, - dedi etakdagi kursiga imo qilib. -Isanmisiz?*

Hujjatlarni obdon ko'zdan keshirib, so'radi:

- *Zemelniy ushstok pozvolat itami?*
- *Hovlim katta, -dedim tushuntirib. –olti sotix.*
- *Rostroyka qilg' an shiqarsiz olay?*
- *Bor. Ikki uy, bir ayvon.*
- *Nizakonniy pastroyka yuqmi?*
- *Yo'q, hammasi zakonniy!*

U qog' o'zlarni shoshilmay, uzoq varaqladi.

- *Teplitsani nishatasiz? Rroyekt razrabotka itarg' a tigish, pojarniy oxranadan spravka olarg' a tigish. Sigiz-tug' iz kushnidan ofitsialniy razresheniye olarg' a tigish! Ay, sploshnoy valakita, svolosh! Lushshe vsego dopolnitelniy postroyka iting-da I vso! Olti sotix zemelniy ushastok pastroyka itarg' a birilg' an, teplitsa qurarg' a tugul!*
- *Boshqalar teplitsa qurayapti-ku, -dedim yalingudek bo'lib. –Hozirsha uy-joyim yetarli. Amallab turibmiz. Qolaversa, yangi uy qurishga pul qani?*
- *Interesno! – U sariq mo'ylovini qiyshaytiribroq iljaydi. –Teplitsa stroit*

itarg' a oqsha bor. Rostroyka qilirg' a yuq, shulaymi?

- endi, shu... mashinani sotuvdim...

Zemlemerning yuzi yorishdi.

-Neujeli? "Neksiya" ili "Mercedes?"

- "Jiguli" edi, ansha uringan...

-Sumg' a sotdig' izmi ili dollarg' a?

Bo'lmadi! Mashinamning so'nggi pulini "yo'talдим!"

(O'tkir Hoshimov. "Ko'kyo'tal"// So'qqabosh bevagina, 2008, 32-b.).

3.Har hafta bo'lib turadigan, "qat'iy", "oxirgi" shoralar ko'riladigan, odatdagi majlis edi.

-Mahkamov qani?- boshliq ko'zoynagini burnining ushiga tushirib, to'planganlarga tahdidli qarab shiqdi.-Majlis to'qqizda boshlanishini bilarmidi?"

Mahalliy qo'mita raisi rangi o'shibroq o'rnidan turdi.

- O'tgan juma kuni yo'lakka e'lon osib qo'yganmiz, - dedi ming' irlab.

Mehnat intizomi muhokama qilinadi, deganmiz. O'qigan bo'lishi kerak. Har neshuk savodi bor-ku...

- Savodi bormish! – burshakda o'tirgan boshbux to'ng' illadi.- Savodi borligi ushuncha kelmagan. Aslida xuddi o'sha Mahkamovning intizomini muhokama qilish kerak! Xudoni bergan kuni keshikadi, mukofotdan mahrum qilaylik desak, jonlaring ashiydi.

- Ay, hammasi bespolezno!-dedi farrosh kampir sharttakilik bilan.-

Ryanstvo yuq bo'ldi deymiz, araq sog'liqqa vredniy, deymiz... Azizning kabinetidan kajdiy den butilka shig'adi! Qayoqdan pul topadi, araq parazitga!

- E, sodda xotin! – qorovul tog' a nosini burshakdagi simsavatga tuflab, to'nining yangi bilan mo'ylovini artdi.- Ishaman degan odam o'g' irlik qilib bo'lsayam pul topadi, araq palakatga!..

(O'tkir Hoshimov. "O'ldi-aziz bo'ldi"// So'qqabosh bevagina, 2008, 180-b.).

4. - Ko'zing "oshki" bo'p qoptimi?- dedi Rolvon Ikromga shaqshayib.- Kim senga "fengal" qo'ydi? (Nuriddin Ismoilov. Iblis saltanati, 1-kitob, 2009, 61-b.)

5.Qizining xastaxonada ekanligi haqidagi xabarni eshitib Qosimning rangi oqardi...(Nuriddin Ismoilov. Iblis saltanati, 1-kitob,2009, 78-b.)

6. -Voy "svolish", joyi kelsa, qoningniyam haromga shiqarib tashlaysan-a... Bo'pti, gaping menga yoqdi... Yaxshi bir og' aynimiz to'y qiluvdi. Shunga okang kelmadi. Biz xafa bo'ldik,-dedi Qosim ayorlik bilan. ...(Nuriddin Ismoilov. Iblis saltanati, 1-kitob,2009, 104-b.)

7. Sheramat shilqimlikni boshlagandayoq haydovshining jahli shiqqan edi. Keyin bular bir-birini yaxshi ko'rishadi-yu, qiz biron sabab bilan arazlab qolgan, shunga yigit uning ko'nglini ovlash bilan ovora, deb o'yladi. Hatto yigitga ashindi ham. Biroq qizning og' zidan bolasi haqidagi gaplar shiqib, shunda ham yigit

“o‘yin”ini to‘xtatmagash, qiz mutlaqo bu odamga tegishli emasligini angladi va jahli shiqib, mashinani yo‘l shekkasiga shiqarib to‘xtatdi.

- Hov, bratan,-dedi Sheramat hayron bo‘lib, - nega to‘xtadingiz?

Haydovshi shoshilmasdan ortiga o‘girilib:

- Mashinadan tush! – dedi vajohat bilan.

- Hov,nimalar deb valdirayapsan? Aravangni sudrasang-shi, yoki o‘lging keldimi?-dedi birdan afti bujmayib ketgan Sheramat.

Haydovshining qo‘llari baquvvat, shayir edi. O‘zi ham Sheramatdan besh—olti yosh katta edi.

U shartta yo‘lovshining yoqasidan oldi.

- Nima deb valdirayotganimni hozir senga yaxshilab tushuntirib qo‘yaman, jipriqi! Sur bu yerdan, qiz qoladi!- dedi,

-Ho, -deya iljaydi Sheramat,- ishtahalari karnay-ku. Biz tayorlab qo‘ygan “osh”ni ishmogshimilari?..

- Oshingni hozir ko‘rsatib qo‘yaman, sen marazga!.. Men senga o‘zbekshalab aytayapman. Mashinadan tush! (...Nuriddin Ismoilov. Iblis saltanati, 1-kitob, 2009, 132-133-b.)

8. U gapirgan sayin yigitlaridan birining peshonasidan ter shiqib ketgan bo‘lsa, ikkinchisini titroq bosgan, yana biri ko‘zi olayib atrofga alanglardi.

- “Koroshshe”, hozir hammamiz xo‘jayinnikiga boramiz. Men bilan Zebadan boshqalar hovlida qoladi.Biz “ish”ni bitirib shiqqanimizdan keyin, u yerdagilarga ozgina ta‘lim beramiz. Uqtinglarmi? (...Nuriddin Ismoilov. Iblis saltanati, 1-kitob, 2009, 139-b.)

9. *-Xo‘jayin,-dedi Samandar tashqariga shiqqanlaridan keyin,- anavi men sigareta so‘ragan kimsalarning ko‘rinishi juda boshqasha ekan, ular sizning yoningizga kelishayotgandi. Niyatlari buzuqqa o‘xshaydi.*

-Nimadeding ularga?

-Mentlar turganini aytdim. Yuraklari tushib qolayozdi. (...Nuriddin Ismoilov. Iblis saltanati, 1-kitob, 2009, 210-b.)

10. *–Hov, bratishka,- dedi Eshqul. -Mushtdaygina bo‘lib nimalar deb sayrayapsan, yoshing neshshida o‘zi? (...Nuriddin Ismoilov. Iblis saltanati, 1-kitob, 2009, 211-b.)*

11. – Kimga ishlaysiz?

- Hesh kimga. Yolg‘ iz, “zakaz” bo‘yisha ishlayman. Menga Rolvonni yo‘q qilib, sizga ko‘rsatish zakaz qilingandi. Men ishimni bitirdim. Endi soqqamni olib bu yerdan quyon bo‘laman.

- Killerman, deng. Menimsha, killerlar ishlariga qizlarni aralashtirishmaydi, shekilli.

- A-a, Venerani aytayapsizmi? – deya kuldi Egamqul. – U mening eng

sadoqatli lubovnitsam. Hozir shaqiraman, -deb u eshik tomonga yuzlandi-da, ovoz berdi.

Qop-qora soshlari yelkasiga tushgan, ko'kraklari durkun, judayam kalta yubka kiygan, yelkalari oshiq qiz nozlangansha kirib keldi.

-Bu boshqa,-dedi Abduhamid,- u sariq soshli edi.

-Maskirovka, oka, bir soatdan keyin ko'shaga shiqadi, voobshe tanimaysiz,- dedi Egamqul... (Nuriddin Ismoilov. Iblis saltanati, 2-kitob, 2009, 12-b.)

8-AMALIY MASHG'ULOT.

LUG'AVIY MA'NO TARAQQIYOTI, UNING NATIJASI.

I. Nazariy savol va topshiriqlar:

1. Leksik ma'noning o'zgarish sabablari nimalardan iborat?
2. Leksik ma'noning o'zgarish yo'llari haqida gapiring.
3. Metafora va uning turlari haqida ma'lumot bering
4. Metonimiya va uning turlari haqida ma'lumot bering
5. Sinekdoxa va uning turlari haqida ma'lumot bering
6. Bazifadoshlik haqida ma'lumot bering
7. Leksik ma'nodagi o'zgarishning natijalari qanday bo'ladi?
8. Leksik ma'no taraqqiyoti haqida ma'lumot bering.

II. Tahlil. Berilgan leksemalarning ma'no o'zgarishlarini aniqlang. - Ushbu tahlilni bajarishda izohli lug' atdan foydalaning.

Kun, qishloq, non, yaylov, yarog', bosh, qosh, oyoq, etak.

II. Mashq qilish Leksik ma'noning o'zgarishida milliylikning ta'sir etishini misollar yordamida aniqlang. Ushbu mashqni bajarishda namunadan foydalaning.

9-AMALIY MASHG'ULOT.

MA'NO TARAQQIYOTI VA SEMIK TAHLIL.

Tahlil. Berilgan leksemalarning ma'no o'zgarishlarini aniqlang. Ushbu tahlilni bajarishda izohli lug' atdan foydalaning.

Tuz, acchiq, shirin, kun, qishloq, non, yaylov, yarog', bosh, qosh, oyoq, yetak.

Semik tahlil namunalari

Tuz- I leksemasining bosh leksik ma'nosi *ovqatga tuz sol-* kabi bog' la-nishda namoyon bo'ladi. *Tuz- I 1* anglatadigan narsa - 'modda', shaklan - 'kristall', rangi - 'oq', ta'mi - 'sho'r', ishlatilish doirasi - 'ovqat', vazifasi - 'namakni rostlash, maza kiritish'. Sanalgan semalar asosida bu leksik ma'noni 'namagini rostlash, maza kiritish uchun ovqatga qo'shiladigan sho'r oq kristall modda' deb ta'riflaymiz.

Bu leksemaning ikkinchi leksik ma'nosi (*tuz- I 2*) *sho'rvaning tuzi* kabi bog' lanishlarda namoyon bo'ladi. Bu yerda 'modda' semasi yo'qoladi, shu bilan bog' liq holda moddaga (jismga) xos belgilarni ko'rsatuvchi semalar ham ketadi. 'Predmet' tushunchasi saqlanadi-yu, lekin 'aniq narsa' tushunchasi 'mavhum narsa' tushunchasiga almashadi, demak, leksik ma'no aniqlikdan mavhumlikka tomon siljiydi, natijada 'modda' semasi o'rnini 'tuzli-tuzsizlik' semasi egallaydi. Ikkinchi leksik ma'noning mundarijasini tashkil etuvchi bu sema birinchi leksik ma'no tarkibidagi 'namakni rostlash, maza kiritish' semasining birinchi subsemasi asosida yuzaga kelgan. Bu yerdagi ma'no taraqqiyoti ko'chirish yo'llaridan metonimiyaga to'g' ri keladi: predmet – shu predmet ta'siri natijasida voqe bo'ladigan predmet.

Tuz- I 3 ma'nosi bu leksemaning *Gapida tuz bor* kabi bog' lanishida namoyon bo'ladi. Bu leksik ma'no *tuz- I 2* ma'nosidan o'sib chiqqan: birinchi leksik ma'nodagi 'maza kiritish' subsemasi va ikkinchi leksik ma'noning 'tuzli-tuzsizlik darajasi' semasi uchinchi ma'no uchun potensial semalar bo'lib xizmat qilgani, shular asosida 'mazmun, mantiq' semasi yuzaga kelgan va bu sema uchinchi leksik ma'noning mundarijasini tashkil etgan. Bu yerda leksik ma'no taraqqiyoti mavhumdan mavhumba chizig' i bo'ylab borgan. Bunday taraqqiyotni an'anaviy ko'chirish yo'llaridan birortasiga kiritib bo'lmaydi (Zaruriyat tug' ilsa, metonimiya deb ketiladi).

Tuz- I 4 ma'nosi bu leksemaning *tuzini ye-* kabi bog' lanishida namoyon bo'ladi. Bu leksik ma'no birinchi leksik ma'no tarkibidagi 'modda' va 'ovqatga qo'shiladigan' semalari asosida shakllangan. Bu leksik ma'noni 'ovqat' deb ta'rifladik. Bu yerda ma'no taraqqiyoti yo'llaridan sinekdoxa voqe bo'lgan: *tuz- -* qism (ovqatdagi bir modda) – *tuz- -* butun (issiq ovqat).

Nihoyat, *tuz- I* leksemasining beshinchi leksik ma'nosi terminologik ma'no bo'lib, oldingi to'rt leksik ma'nodan keskin farq qiladi. *Ingliz tuzi-*, o'rta *tuzlar-* kabi turg' un birikmalarda (tarkibli terminlarda) namoyon bo'ladigan bu ma'no fanda quyidagicha ta'riflanadi: 'kislota tarkibidagi vodorodni biror metall bilan to'liq yoki qisman almashtirish natijasida hosil bo'ladigan kimyoviy modda'. *Tuz- I 5* asli semantik kalka: rus tilida *sol* leksemasiga birkirilgan bu ilmiy tushunchani o'zbek tilida ifodalash talabi paydo bo'lganida ruscha *sol* leksemasining o'zbek tilidagi muqobili *tuz-* leksemasi olinib, unga shu mundarija birkirilgan. Semantik kalkada yangi ma'no yuzaga keladi, lekin bu jarayon leksik ma'no taraqqiyotining

an'anaviy ko'chirish yo'llaridan keskin farq qiladi, shu sababli alohida hodisa sifatida baholanadi.

Ko'rinadiki, leksik ma'no taraqqiyoti bilan yangi leksik ma'noning yuzaga kelishida avvalgi leksik ma'no tarkibidagi sema saqlanadi, tashlanadi, yangi sema bilan almashtiriladi, yangi sema kiritiladi; shu kabi o'zgartirishlar natijasida yangi leksik ma'no shakllanadi.

Tuz- I leksemasining leksik ma'nolarini va ular tarkibiga mansub ideografik semalarni chizmada quyidagicha ko'rsatish mumkin:

№	Ideografik semalar	Leksik ma'nolar				
		1	2	3	4	5
1	Predmet	+	+	+	+	+
2	Modda	+	-	-	[+]	+
3	Kristall	+	-	-	-	[+]
4	Oq	+	-	-	-	-
5	sho'r	+	+	-	-	-
6	ovqatga qo'shiladigan	+	-	-	[+]	-
7a	namagini rostlaydigan	+	[+]	-	-	-
7b	maza kiritadigan	+	-	[+]	-	-
8	tuzli-tuzsizlik darajasi		+	[+]	-	-
9	mazmun, mantiq			+	-	-
10	issiq ovqat				+	-
11	kimyoviy modda					+

10-AMALIY MASHG'ULOT

LEKSIK MA'NONING SINTAGMATIK XUSUSIYATLARI

Nazariy savol va topshiriqlar:

1. Munosabat deganda nimani tushunasiz?
2. Til birliklari o'rtasidagi asosiy munosabatlar haqida ma'lumot bering.
3. Paradigmatik munosabat qanday munosabat?
4. Leksik ma'noning ierarx munosabati haqida ma'lumot bering va misollar keltiring.
5. Leksik ma'noning sintagmatik munosabati haqida ma'lumot bering va misollar keltiring.

II. Tahlil. Badiiy matndan 10 tadan leksemalarni ajrating, u leksik kontekstini va klassemalarini. Ushbu mashqni bajarishda namunadan

foydalaning.

Ma'lum leksema tarkibida nechta semema mavjud bo'lsa, har bir semema o'ziga xos ma'noviy bog'lanishlar hosil qila oladi. "Ko'k" leksemasining quyidagi to'rt sememasi va leksik kontekstiga e'tibor qaratamiz:

No	sememalar	Leksik kontekst
1	Rang	<i>Ko'k rang, ko'k qog'oz, ko'k koptok, ko'k ko'z</i>
2	yer ustida gumbaz shaklida ko'rinib turadigan havo qatlami	<i>Ko'kdagi yulduzlar, ko'kka boqmoq, ...</i>
3	O'sayotgan o't-o'simlik, o't-o'lan;	<i>Ko'k dala, ko'kka yetmoq,...</i>
4	Kashnich, janbil, ukrop kabi ovqatga qo'shib yeyiladigan rezavor o'simliklar, ko'kat.	<i>Ko'k termoq, ovqatga ko'k solmoq, ko'k somsa...</i>

Ma'lumki, o'zbek tilida "ko'k" to'rtta rangni bildirishi ma'lum. Bitta sememaning turli ranglarni ifodalashi uning leksik qurshovidan ma'lum bo'ladi.

1	osmon rangi	<i>ko'm-ko'k osmon,</i>
2	to'q osmon rangi	<i>ko'k qalam</i>
3	yashil rang	<i>ko'm-ko'k dala</i>
4	kul rang	<i>ko'k bo'ri, ko'k kaptar,</i>

"Qora" leksemasining leksik qurshovi

klassema	leksik kontekst
rang	qora mato, qora qalam, qora rang, ...
ko'mir rangi	ko'mirday qora, ...
salbiylik	qora kunlar, qora fikr, qora niyat

"Oq" leksemasining leksik qurshovi

klassema	leksik kontekst
rang	oq qog'oz, oq ko'ylak, oq idish, ...
sut rangi	sutday oppoq, ...
ijobiylik	oppoq niyatlar, oppoq kunlar, ...

11-AMALIY MASHG‘ULOT

SEMANTIK VALENTLIK

I. Nazariy savol va topshiriqlar:

1. Valentlik nima?
2. Semantik valentlik haqida ma`lumot bering.
3. Qanday semaga klassema deyiladi?
4. Asosiy belgilovchi kontekst haqida ma`lumot bering.
5. Neytral kontekst haqida ma`lumot bering.
6. Semantik birika olmaydigan so‘zlar haqida ma`lumot bering.
7. Valentlik atamasi xususida fikr bildiring.

II. Tahlil. Badiiy matndan 10 tadan leksemalarni ajrating, u leksik kontekstini va klassemalarini. Ushbu mashqni bajarishda namunadan foydalaning.

Shoy leksemasining «o‘simlik bargidan maxsus tayyorlanadigan ishimlik» sememasining semantik valentligi:

<i>klassema</i>	<i>leksik kontekst</i>
Suyuqlik	quymoq, to‘kmoq, ...
Ishimlik	ishmoq, xo‘plamoq, shimirmoq, xo‘rillatmoq,...
O‘simlik bargidan tayyorlanadigan	ko‘k, qora, yalpiz, ...
Maxsus tayyorlanadigan O‘ziga xos sifatga ega	damlamoq, qaytarmoq, dam egizmoq ashshiq, shirin, xushbo‘y, hidli, ...

II. Tahlil. Badiiy matndan 10 tadan polisemantik leksemalarni ajrating, ularning sememalarini semantik valentligini aniqlang. Ushbu mashqni bajarishda namunadan foydalaning.

III. Tahlil. Badiiy matndan 10 tadan polisemantik leksemalarni ajrating, ularning sememalarini semantik valentligini aniqlang. Ushbu mashqni bajarishda namunadan foydalaning.

12-AMALIY MASHG‘ULOT.

SINONIMIYA

Nazariy savol va topshiriqlar:

1. Absolyut sinonimlar haqida Sh.Rahmatullaev qanday fikr bildiradi?
2. Kontekstual sinonimlar lisoniy hodisami yoki nutqiy?

3. Bir ma'no anglatishiga ko'ra guruhlangan sinonim so'zlar yig'indisi nima deyiladi?

4. Sinonimlarning qanday turlari mavjud?

Semik tahlil. O'zbek tili sinonimlarining izohli lo'g'atidan sinonimik qatorlarni semik tahlil qilish. Quyidagi farqliliklarga misol keltiring.

1. Konnotativ ma'nodagi farqlilik;

2. Denotativ ma'nodagi farqlilik;

3. Uslubiy farq.

Bir denotatni, ya'ni voqeyelikdagi aynan bir narsani nomlovchi leksemalar konnotativ ma'no (emotsional-ekspressivlik) nuqtai nazaridan farqlanadilar. Mazkur holatda sinonimlar aynan bir hodisani nomlaydi, lekin ularda ushbu hodisaga bo'lgan munosabat farqli bo'ladi: *novcha*, *dorg'ul*, *naynov*, *darroz*. Bunday sinonimik qatorlarda atash semalari aynan bo'ladi, ifoda semalari har xil bo'ladi. Demak, bu kabi sinonimik qatorlarda denotativ ma'no va denotativ ma'no asosida hosil bo'ladigan signifikativ ma'no ham umumiy, aynan bo'ladi. Farqlilik esa konnotativ (emotiv) ma'noda yuz beradi:

		konnotatsiya (0)	1-leksema: <i>novcha</i>
denotat	signifikat	konnotatsiya (+)	2-leksema: <i>dorg'ul</i>
		konnotatsiya (-)	3-leksema: <i>naynov</i>

Kulimsiramoq, *jilmaymoq*, *iljaymoq*, *irshaymoq*, *tirjaymoq*, *ishshaymoq*, *irshaymoq* sinonimik qatoridagi hamma leksemalarning denotati bitta, umumiydir: ovoz chiqarmay xursandchilikni ifoda qilish uchun bajariladigan ko'z, lab harakati. *Jilmaymoq* ijobiy konnotativ ma'noga, *iljaymoq*, *irshaymoq*, *tirjaymoq*, *ishshaymoq*, *irshaymoq* esa salbiy konnotativ ma'noga ega. Salbiy konnotativ ma'noga ega sinonim leksemalar ham o'zaro salbiylikning darajasiga ko'ra farqlanadi. Masalan, *iljaymoq* sinonimida salbiylik darajasi kuchsizroq bo'lsa, *tirjaymoq* leksemasidagi salbiylik esa kuchliroqdir. Ijobiylik yoki salbiylikning oshib va aksincha kamayib borishi asosida sinonimik qatordagi leksemalar darajalanishi mumkin:

oraz – jamol – chehra – diydor – yuz – bet – aft – bashara – turq²

²Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш. Тошкент, «Фан», 1995, 26-бет

+4 +3 +2 +1 0 -1 -2 -3 -4

Bunda darajalanish ijobiylikdan salbiylik tomon ortib bormoqda.

2. Ayrim sinonim leksemalarning denotatida ham sezilarsiz farqlilik bo‘ladi va o‘z-o‘zidan signifikativ ma’noda ham farqlilik mavjud bo‘ladi. *Achchiqlanmoq, g‘azablanmoq, qahrulanmoq* sinonimik qatoridagi leksemalarning denotatlariga e’tibor qilsak, ushbu leksemalar bitta denotatning turli nomlari emas, balki har biri alohida o‘zaro yaqin denotatlarning nomidir. Zero, achchiqlanish, g‘azablanish va qahrulanish bir turdagi, umumiy belgilarga ega turli hodisalardir.

Denotativ ma’nolari bilan farqlanuvchi sinonimlarda bir xil, umumiy atash semalari mavjud bo‘ladi. Farqlilik esa bir denotativ sema doirasida kuzatiladi. Sinonimik qator leksemalari bitta semaning turli darajalarini ifodalaydilar va shu asnoda farqlanadilar. *Kuchli, baquvvat, zabardast* sinonimik qatorida «jismoniy kuchga egalikning ortiqligi» *kuchlidan zabardastga* tomon darajalanyapti. Bu kabi sinonimik qatorlarda atash semasi bilan birga ifoda semasining ham darajalanib borishini ko‘rish mumkin. Masalan, zukkolik belgisining (denotativ) tadrijiy kamayib borishiga salbiy munosabatning (konnotativ) oshib borishi darajalari to‘g‘ri keladi:

Zukkolikning kamayib borishi (denotativlik)

0 -1 -2 -3 -4 -5
sodda – ovsar – go‘l – laqma – pandavaqi – merov³

0 +1 +2 +3 +4 +5

salbiy munosabatning oshib borishi (konnotativlik)

13-AMALIY MASHG‘ULOT.

ANTONIMIYA

Nazariy savol va topshiriqlar:

1. Konkret narsa otlarida antonimiya mavjudmi?
2. Toza-kirlangan so‘zlari o‘rtasida qanday munosabat mavjud?
3. Aka va uka leksemalari antonim bo‘la oladimi?
4. Mantiqiy markaz hamma antonimik juftliklarda kuzatiladimi?
5. Fe’lning bo‘lishli-bo‘lishsiz shakllari antonimiyani hosil qila oladimi?

³ Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш. Тошкент, «Фан», 1995. 27-бет

6. Opa-singil, tog' a-xola qanday so'zlar?
7. Mantiqiy markazga ega bo'lmagan antonimik juftlikka misol keltiring.
8. Antonimlar qanday uslubiy vosita hosil qiladi?

Semik tahlil. O'zbek tili antonimlarining izohli lo'g' atidan antonimik juftliklarni qiyosiy semik tahlil qilish.

Antonimiya barqaror semantik munosabat bo'lib, uning asosida antonimik juftliklar hosil bo'ladi. Antonimik juftliklar qarama-qarshi ma'no anglatganda, ular aynan bir hodisaning bir-biriga zidlash mumkin bo'lgan eng chekka ikki tomonini, ikki qutbini ifodalaydi. Masalan, *kun* va *tun* sutkaning eng chekka ikki qutbini ifodalaydi. Ikki qutb o'rtasida boshqa oraliq hodisalar ham bo'lishi mumkin:

Yoki:

A – *kun*, B – *tun*, V – *oqshom*, S – *tong*

1-holatda A antonim B, 2-holatda B antonim A

Agar antonimik juftlik ifodalayotgan ma'no o'rtasida oraliq hodisalar mavjud bo'sa, ushbu antonimiya munosabati darajalanish asosida shakllangan deya olamiz. Bunda ma'noviy darjalanishning birinchi va oxirgi leksemalaridagi farqlilik kuchayib eng oxirida antonimiyaga yetib borgan: yorug'likning kamayib borishi asosidagi darajalanish: *kun* – *oqshom* – *tun*, quyosh haroratining oshib borishi asosidagi darajalanish: *qish* – *bahor* – *yoz*.

Antomik juftlik ifodalayotgan qutbning o'rtasida oraliq hodisalar bo'lmasligi ham mumkin. Bu esa mantiqiy markaz orqali belgilash antonimlikni belgilovchi asosiy mezon emasligini ko'rsatadi:

A – *rost*, B – *yolg'on*

Antonimiya qarama-qarshi ma'no bildiruvchi ikkita alohida leksemaning munosabatidir. Bir so'zning qarama-qarshi ma'no anglatuvchi ikki shakli antonim bo'la olmaydi: *o'qigan* – *o'qimagan*, *aytilgan* – *aytilmagan*.

Antonimlarni umumiy giperonimga ega giponimlarning o'zaro munosabatidan farqlash lozim. Masalan, umumiy *jins* giperonimga ega *ayol* va *erkak*, *farzand* giperonimi bilan umumlashadigan *o'g'il* va *qiz* giponimlari

antonimik juftlikni hosil qila olmaydi. Albatta, ushbu leksemalar yagona differensial semasi bilan farqlanishi mumkin. Antonimik munosabat hosil bo'lishi uchun esa qarama-qarshilik bitta mohiyatning, hodisaning ichida bo'lishi va yana ikki leksema tarkibidagi yagona farqlovchi semalar ham zid bo'lishi kerak. *O'g'il* va *qiz*, *ota* va *ona*, *tog'a* va *xola* leksemalari «erkak» va «ayol» semalari asosida (farqlanadi) zidlanadi. Bizningcha, erkak va ayol bir hodisaning qarama-qarshi tomonlari emas, bir giperonimga ega ikki xil hodisadir.

Birlashtiruvchi va differensial semaga ega barcha leksemalar differensial semalari asosida zidlanishlar hosil qiladi. Sinonimiya, giponimiya, partonimiya, funksionimiya kabi semantik munosabatlardagi leksemalarda ham zidlanishlar mavjud, ushbu munosabatlar ma'lum darajada zidlanishlarga asoslanadi. Antonimiya munosabatining mohiyatini esa zidlanish tashkil etadi. Shuning uchun, antonimiya munosabatini oppozitiv – zidlik munosabati yoki zidlanishlarning bir turi sifatida ham e'tirof etadilar.

Antonimiya bir leksema doirasida ham kuzatilishi mumkin. Bunda leksema o'zi anglatayotgan ma'nolari bilan o'ziga o'zi antonim bo'lib qoladi. Masalan, *dahshat* leksemasining ma'nolari kontekstda antonim bo'la oladi: *urush dahshati – dahshat kiyinmoq*. Shunday holat *ofat* leksemasida ham kuzatiladi: 1. *Tog'li hududlarda tabiiy ofat yuz berdi*. 2. *Qiz ofat bo'libdi*. Bir leksema ma'nolarining antonim ma'no ifodalashi enantiosemiya deyiladi.

14-AMALIY MASHG'ULOT. GRADUONOIMIYA

Nazariy savol va topshiriqlar:

1. Leksik graduonimiya bo'yisha nomzodlik ishini amalga oshirgan olim kim?
2. Shopmoq-yugurmoq-elmoq leksemalariaro qanday leksik-semantik munosabat mavjud?
3. Denotativ ma'noning darajalanishi.
4. Konnotativ ma'noning darajalanishi.
5. Shaqaloq-bola-o'smir-yigit leksemalari qanday munosabatni hosil qiladi?

TAHLIL. Quyidagi darahalanish qatorlariga o'xshash misollar toping.

I. Predmet yoki predmetlikni ifodalovchi leksemalar (otlar) ma'nolarida darajalanishlar: a) «oqmas suv joyining hajmi»da: hovuz – suv ombori – ko'l – dengiz; b) «oqar suv hajmi»da: jo'yak – ariq – kanal – soy – daryo; v) «joylash o'rini hajmi»da: xalta – qop – qanor; g) «yosh» semasida: chaqaloq – go'dak – bola – o'g' il/qiz – erkak/xotin – chol/kampir – qariya; d) «xususiy boylikka egalik»da kambag'al – o'rtahol – boy; ye) «baholash» semasida yomon – qoniqarli – yaxshi – a'lo; yo) «mavhumlmkdan aniqlikka borilishi»da umumiylik – alohidalik – xususiylik; j) «yorug'likning kamayib borishi»da yorug' – g' irashira – qorong' i; z) «erning o'z o'qi atrofidagi 24 soatlik aylanish vaqtining oshib borishi»da: sahar – tong – choshgoh – tush – kun oqish – kun botish – shom – tun kabi; i) «erning quyosh atrofida 12 oylik aylanish miqdorining tadrijiy oishb borishi»da: bahor – yoz – kuz – qish va hokazo.

II. Belgi-holat anglatuvchi leksemalar (sifatlar) ma'nolarida darajalanishlar: a) «ta'm»da tussiz – chuchmal – rosa – sho'r; b) «harorat»da iliq – issiq – qaynoq; v) «buy»da: pakana – o'rta bo'y – novcha – daroz; g) «tezlik»da chopag'on – chopqir – uchqur; d) «fikrlash sifati»da: nodon – esli – dono; ahmoq – esli – aqlli – donishmand; ye) «estetik ta'sir»da: kelishgan – husnli – chiroyli – go'zal – sohibjamol; yo) «qo'li ochiqlik»da: sahovatli – sahiy – xotam – ahiy kabi.

III. Sanaluvchi miqdorni anglatuvchi leksemalar (sonlar) tizimining semantik qurilishi sof miqdorning darajali oshib-kamayib borishiga asoslangan: bir – ikki – uch – to'rt ...; yigirma – o'ttiz – qirq kabi.

IV. Harakat-holat anglatuvchi leksemalar (fe'llar) ma'nolarida darajalanishlar: a) «tovush tomonning kuchayib borishi»da shipshimoq-shivirlamoq – pichirlamoq, hihilamoq – xexelamoq – xoxolamoq – qaxqahlamoq; b) «norozilik hissining oshib borishi»da: ranjimoq – xafalanmoq – diqqat bo'lmoq – xunob bo'lmoq – g' azablanmoq – qahrlanmoq; v) «xavfga munosabat»da: hadiksiramoq – cho'chimoq – qo'rqmoq – vahimaga tushmoq; g) «harakat tezligi»da: yurmoq – chopmoq – yugurmoq – yelmoq – uchmoq; d) «harorat»da: isimoq – sovimoq – muzlamoq kabi.

V. Ishora qiluvchi-ko'rsatuvchi leksemalarda (olmoshlarda) darajalanishlar: a) «nutq ishtirokchilarining makoniy uzoqlashishi»da: men – sen – u; b) «belgilash miqdorining kamayib borishida»da: hamma – ba'zi hych kim; v) «aniqlikning yo'qolib borishi»da: men – kimdir – hych kim kabi.

VI. Harakat belgilarini ifodalovchi leksemalarda (ravishlarda) darajalanishlar: a) «payt»da: kecha – bugun – ertaga, doimo – ba'zan – hych qachon; b) «harakat miqdori»da: ancha – ko'p – behisob; v) «holat»da: och – ochin-to'qin – to'q, chalqanchasiga – yonbosh – yuztuban kabi.

YII. Taqlidiy leksemalarda davomlilik, ko‘plik kabilarning darajalanishlar orqali ifodalanishi: dik-dik – duk –duk – do‘q-do‘q, shilp-shilp – shalp-shalp – shalop –shalop, mo‘ – mo‘o‘ – mo‘o‘o‘ kabi.

YIII. Undovlarda darajalanish: a) «his-hayajon»da: eh – ehye – eha, eh – oh – voh, uf – uff – ufff, qoyil – ofarin – tasanno; «haydash»da: chu – cho‘ – cho‘h; v) «chaqirish»da: hyey – hoy – hooy kabi.

IX. Modal leksemalarda imkoniyat-zaruriyat ko‘lamidagi darajalanishlar: mumkin – lozim – shart – zarur kabi.

15-AMALIY MASHG‘ULOT. GIPERO-GIPONIMIYA

Nazariy savol va topshiriqlar:

1. Giperonimning ta’rifini ayting.
2. Giponim nima?
3. Ekvonimning ta’rifini tushuntiring.
4. Xona-eshik leksemalari qanday lesik-semantik munosabatda?
5. Gul-lola munosabatida giponim leksemani aniqlang.
6. Millat-o‘zbek leksemalari munosabtila giponim leksemani aniqlang.

Mashq. Ma’lum bir giperonim asosida leksik-semantik guruhlar tuzing.

Tahlil qilish. *Daraxt, terak, qayin, tol, yel* qatorida giperonim, giponim, ekvonimlarning qiyosiy semik tahlil qiling.

farzand, o‘g‘il, qiz qatorida *farzand* qatorida giperonim, giponim, ekvonimlarning qiyosiy semik tahlil qiling.

16-AMALIY MASHG‘ULOT. PARTONIMIYA

Nazariy savol va topshiriqlar ustida ishlash

1. Yuz-ko‘z leksemalari qanday munosabat hosil qilmoqda?
2. Leksemalarning butun-qism munosabatlari qanday termin bilan ataladi?
3. Millat-o‘zbek leksemalari munosabtila giponim leksemani aniqlang.
4. Shoynak-qopqoq leksemalariaro qanday leksik-semantik munosabat mavjud?
5. Partonimik munosabat qanday adabiyotlarda berilgan?
6. Barcha so‘zlar partonimik munosabat hosil qila oladimi?
7. Olamdagi barcha voqeliklar partonimik munosabat hosil qila oladimi?
8. Vaqt o‘lchovi otlarida partonimik munosabat, ya’ni tashkil etuvchilik leksemaning semantik strukturasi ham yaqqol ko‘rinadi. Boshqacha aytganda, leksema ma’nosining strukturasi partonimik munosabat asosida

shakllangan. Ya'ni, *asr yildan* (*asr-butun, yil-qism,*) *yil fasldan* (*yil-butun, fasl-qism*), *fasl oydan* (*fasl-butun, oy-qism*)... tashkil topgan va shu asnoda shakllangan. Buni quyidagi jadvaldan ham ko'rish mumkin:

No	Butun (semema) qism (sema)	mi- nut	Soat	sutka	hafta	oy	fasl	yil	asr
1	sekund	+							
2	minut		+						
3	soat			+					
4	sutka				+				
5	hafta					+			
6	Oy						+	+	
7	fasl							+	
8	yil								+


17-AMALIY MASHG'ULOT. SEMANTIK MAYDON

I. Nazariy savol va topshiriqlar:

1. Fizikada maydon tushunshasi qanday ma'no kasb etadi?
2. Tilshunoslikka maydon tushunshasi kim olib kirgan?
3. Tilshunoslikda maydon tushunshasi nimani bildiradi?
4. Lisoniy maydonning qanday turlari mavjud?
5. Mazmuniy maydon nazariyasining shakllanishi haqida ma'lumot bering.
6. O'zbek tilshunosligida mazmuniy maydon nazariyasining shakllanishi.
7. O'zbek tilshunosligida maydon bo'yisha qilingan ilmiy ishlarni tavsiflang.
8. O'zbek tilshunosligida qanday maydonlar tahlil qilingan?

II. Tahlil. Talaba, ruhiy holat, xurmat, vaqt kabi ma'nolar atrofida birlashuvshi leksemalarning mazmuniy maydonini belgilashga harakat qiling. - Ushbu tahlilni bajarishda quyidagi shizmaga e'tibor qarating.

O'zbek tilida "temporallik" maydoni



18-AMALIY MASHG'ULOT.

SEMASIOLOGIYANING TADQIQ METODLARI

I. Nazariy savol va topshiriqlar:

1. Metod deb nimaga aytiladi?
2. Ilmiy metodlar qanday tasnif qilinadi?
3. Induktiv va deduktiv metodlar haqida ma'lumot bering.
4. Tavsifiy metodning semasiologik tadqiqotlardagi o'rni qanday?
5. Tarixiy va qiyosiy metod haqida ma'lumot bering.
6. Leksik ma'noni komponentlab tahlil qilish metodining asosiy maqsadi nima?
7. Komponent tahlil metodiga misollar.

Namuna

Leksema: *Hingillamoq*

Sememasi: past ovozda yoqimsiz kulmoq.

Denotativ semalari: kulmoq, ovozning pastligi.

Konnotativ semalari: yoqimsiz (salbiy).

Yirik guruhlariga a'zo qiluvchi arxisemasi: harakat yoki insonga xos harakat.

Qanday integral semasi yoki semalari yordamida oppzitsiyalarga kirisha oladi?

“Kulmoq” semasi bilan *kulmoq*, *jilmaymoq*, *tirjaymoq* leksemalari bilan sinonimik munosabat hosil qila oladi.

Qanday differensial semasi yoki semalari asosida boshqa leksemalar bilan

farqlanishlar hosil qiladi? “Yoqimsiz” konnotativ integral semasi bilan *jilmaymoq* leksemasidan farqlanmoqda.

Namuna

Leksema: *Qish*

Sememasi: kuzdan keyin bahordan oldin keladigan yilning eng sovuq fasli.

Denotativ semalari: fasl, kuzdan keying, bahordan oldingi, uch oydan iborat, sovuq.

Konnotativ semalari: yo‘q.

Yirik guruhlariga a‘zo qiluvchi arxisemasi: vaqt.

Qanday integral semasi yoki semalari yordamida oppzitsiyalarga kirisha oladi?

“Fasl” semasi bilan *bahor, yoz, kuz* leksemalari bilan leksik-semantik guruh hosil qila oladi. “Uch oydan iborat” semasi asosida *dekabr, yanvar, fevral* so‘zlari bilan partonimik munosabat hosil qiladi. “Sovuq” semasi yordamida sovuqlikning oshib borishi belgisi bo‘yicha *yoq – kuz – qish*, sovuqlikning kamayib borishi bo‘yicha *qish – bahor – yoz* darajali qatorlar hosil qila oladi.

Qanday differensial semasi yoki semalari asosida boshqa leksemalar bilan farqlanishlar hosil qiladi? “sovuq” denotativv integral semasi bilan *yoq* leksemasidan farqlanmoqda.

Potensial semasi: “qorning yog‘ishi”. Mazkur potensial sema quyidagi kontekstda namoyon bo‘lmoqda: *Bu yil qish juda erta keldi. Noyabrning boshlaridayoq butun borliq oppoq qorga belandi.*

Adabiyotlar:

1. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологиси. – Тошкент, 2010
2. Ҳакимова М. Семасиология. Тошкент, 2008
3. Неъматов Х, Расулов Р, Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. - Тошкент, «Ўқитувчи», 1995.
4. Rahmatullaev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. Toshkent: Universitet, 2006.
5. Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш. Тошкент, 1995.
6. Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини система сифатида тадқиқ этиш. Филол. фанлари докт. ...дис. автореф. -Тошкент, 2005.
7. Искандарова Ш. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайдони): Филол.фан.д-ри...дис.-Тошкент , 1999. -259 б.

8. Қўчқортюв И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги (ўзбек тилидаги нутқ феъллари материали асосида). - Тошкент: Фан, 1977. - 168 б.
9. Сафарова Р. Лексик-семантик муносабатнинг турлари. Тошкент: Ўқитувчи, 1996.